

O'ZBEK KULOLCHILIK SAN'ATI TARAQQIYOTI VA RISHTON MAKTABINING O'ZIGA XOS AN'ANALARI

Ikromov Muhammad-Anasxon Xakimjon o'g'li

Qo'qon davlat universiteti v.b. dotsenti, p.f.b.f.d. (PhD)

ORCID: <https://orcid.org/0009-0008-0147-4597>

E-mail: anasxonikromov1904@gmail.com

Madumarova Zuhraxon Rashidjon qizi

*Qo'qon davlat universiteti Magistratura bo'limi Muhandislik grafikasi va dizayn
nazariyasi 2- bosqich magistranti*

E-mail: zuhramadumarova07@gmail.com

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 06.11.2025

Revised: 07.11.2025

Accepted: 08.11.2025

KALIT SO'ZLAR:

*O'zbek xalq amaliy
san'ati, kulolchilik,
Rishton maktabi, sopol
buyumlar, kulollik
charxi, ishqor sir,
tabiiy bo'yoqlar, Amir
Temur davri, Afrosiyob,
So'g'd madaniyati,
O'rta Osiyo, an'anaviy
hunarmandchilik,
badiiy meros.*

Mazkur maqolada O'zbek xalq amaliy san'atining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lgan kulolchilik san'atining kelib chiqishi, tarixiy taraqqiyoti, texnologik xususiyatlari hamda badiiy jihatlari tahlil etilgan. Tadqiqotda neolit davridan boshlab sopol buyumlar yaratish jarayonining bosqichma-bosqich rivojlanishi, O'rta Osiyoda, xususan, Qo'qon–Rishton kulolchilik maktabining shakllanishi va o'ziga xosligi yoritilgan. Shuningdek, Amir Temur davrida amaliy san'atning yuksalish davri, Rishton kulolchilik an'analari, tabiiy xom ashyolardan foydalanish, sir va bo'yoq tayyorlash jarayonlari, hamda XX asrda ushbu san'atning qayta tiklanish jarayonlari tahlil qilingan. Maqolada Tojikiston, Qirg'iziston va Rossiya kulolchilik san'atining umumiy va farqli jihatlari ham qiyosiy tahlil asosida ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, o'zbek kulolchilik san'ati o'zining tabiiylik, milliylik va badiiy uyg'unligi bilan jahon madaniy merosida alohida o'rin tutishi isbotlangan.

O'zbek xalq amaliy san'ati o'zining qadimiyligi va boy madaniyati bilan butun dunyoga mashhur hisoblanadi. Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz, Toshkent, Qo'qon va shu kabi boshqa shaharlardagi har bir tarixiy obida, har bir xalq amaliy san'ati namunasi ajdodlarimiz yaratgan takrorlanmas, teran mazmunli va bebaho san'at asarlari, jahon madaniyatining durdonalaridan bo'lgan badiiy va ma'naviy merosni tashkil etadi.

Xalq amaliy san'atining ganchkorlik, naqqoshlik, yog'och o'ymakorligi, kulolchilik, kandakorlik, pichoqchilik, zargarlik, kashtachilik, zardo'zlik, gilamchilik kabi ko'plab

rivojlangan turlarining o'ziga xos tomonlari, texnologiyalari, uslublari, maktablari, umuman olganda, xalq ustalarining pedagogik merosi hali to'liq o'rganilmagan.

Xalq amaliy san'atining keng tarqalgan turlaridan biri kulolchilik san'ati bo'lib, qadimdan barcha xalqlarda o'ziga xos uslub bilan rivojlangan. O'zbek kulolchiligi ham o'zining uzoq tarixiga, ajoyib an'analari, shakli, mazmuni, ijodiy jarayoni va o'ziga xos uslubiga ega. Sopol buyumlar ko'rinishi jihatidan sodda bo'lishiga qaramasdan, qismlarining aniqligi, mutanosibligi, naqshlarining badiiy joylashuvi va mazmunining birligi, uyg'unligi o'zbek kulollarini jahonga tanitib kelmoqda.

Xalq amaliy san'atining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lgan kulolchilik, turli xalqlarda o'ziga xos uslublar bilan shakllangan va rivojlangan. O'zbek kulolchiligi esa boy tarixiy ildizlari, o'ziga xos badiiy an'analari hamda shakl va bezakdagi o'ziga xosliklari bilan ajralib turadi. Sopol buyumlarning oddiy ko'rinishiga qaramay, ularning o'lchamlari aniq, proporsiyasi muvofiq va bezaklarning estetik uyg'unligi o'zbek kulol san'atining jahon miqyosida e'tirof etilishiga asos bo'lmoqda.

Kulolchilik – insoniyatning eng qadimgi hunarmandchilik turlaridan biri bo'lib, u madaniyat, texnologiya va san'atning rivojlanishida muhim rol o'ynagan. Ushbu bobda kulolchilikning kelib chiqishi, uning dastlabki markazlari va O'rta Osiyo (ayniqsa, Qo'qon-Rishton) an'alarining shakllanishi tadqiq etiladi.

O'zbek xalqining ko'p asrlik tarixida xalq amaliy bezak san'ati turlari boy va rang-barang madaniy merosimizning eng ajoyib va ommaviy qismini tashkil etadi.

O'zbek diyorida vujudga kelib gullab-yashnagan san'at turlari bemisl va betakrorligi bilan dunyoga mashhur. Bunday kamolot va taraqqiyot bosqichlari haqida fikr yuritiladigan bo'lsak, o'zbek amaliy bezak san'ati turlarining shox ildizlari insoniyatning bolaligi, ya'ni ibtidoiy jamiyatga borib taqalishining guvohi bo'lamiz.

Kulolchilikda asosiy xomashyo – tuproq. Kelib chiqishi va tarkibi turlicha bo'lgan tuproqlardan turli xil kulolchilik mahsulotlari tayyorlanadi. Loy qancha ko'p pishitilsa, sopolning sifati shuncha yaxshi bo'ladi. Kulolchilikda asosiy qurol kulolning charxi, usta unda idishlar tayyorlaydi va ularga shakl beradi. Tayyorlangan idishlar quritilib, xumdonda qizdiriladi.

Kulolchilik insoniyat tarixida ilk mehnat faoliyatlaridan biri sifatida shakllanib, uning rivojlanishi tuproqning keng tarqalganligi va oddiy texnologiyalar bilan bog'liq bo'lgan. Neolit davridan boshlab qo'lda yasalgan uchli taglikli idishlardan tortib, keyinchalik sirlangan, nafis sopol buyumlargacha bo'lgan taraqqiyot bosqichlari, kulollikning nafaqat amaliy, balki badiiy soha sifatida takomillashganini ko'rsatadi. Ayniqsa, kulol charxining paydo bo'lishi ushbu hunarning ijtimoiy mehnat taqsimotidagi o'rnini ham o'zgartirgan.

Kulollik charxi – kulollikda ishlatiladigan dastgoh; kulolning asosiy ish quroli, maxsus loydan ishlanadigan idishni shaklga solishda foydalaniladi. Kulollik charxi ikki yog'och

g'ildirak-katta parrak (diametri 1 metrgacha) va kichik sartaxta diametri (20-30 sm) hamda g'ildiraklarning markazidan o'tgan dumaloq xarsang toshga o'rnatilgan o'qdan iborat. Kulol pasdagi katta g'ildakni oyog'i bilan aylantiradi, yuqoridagi g'ildirak ustiga loyni quyib idish yasaydi. Kulolchilik charxi ilk bor Qadimgi Sharqda milloddan avvalgi 4-3 ming yillikda paydo bo'lgan, u dastlab qo'lda aylantirilgan. Keyinchalik o'rta asrlarda oyoq bilan aylantiriladigan xili-hozir qo'llanilayotgan Kulolchilik charxi yuzaga kelgan

Kulollik charxi nafaqat amaliy jihatdan muhim vosita, balki madaniy taraqqiyot mahsulidir; u qadimda oddiy qo'l harakati bilan boshqarilgan bo'lsa, keyinchalik oyoq bilan aylantiriladigan mexanizmga aylanishi, inson tafakkurining texnologik yutuqqa aylangan ifodasidir. Aynan shu qurilmaning takomillashuvi tufayli kulollar oddiy maishiy idishlardan tortib, san'at darajasiga yetgan keramika namunalarini yaratish imkoniga ega bo'lishgan.

Arxeologik topilmalar shuni ko'rsatadiki, dastlabki kulolchilik buyumlari neolit davrida (mil.avv. 10,000–3,000) paydo bo'lgan. Quyida bir necha mamlakatlar misolida ko'rishimiz mumkin:

Yaponiyada (Jomon madaniyati, mil.avv. 14,000) – o'simlik tolalari qo'shilgan loydan turli xildagi idishlar yasalgan .

Xitoyda (Yangshao madaniyati, mil.avv. 5,000) – qizil sopoldan yasalgan va ularniqora naqshlar.

Mesopotamiya va Misr kulolchiligi- Mesopotamiyada (mil.avv. 6,000) dastlabki kulol g'ildiragi ixtiro qilingan, bu texnologik taraqqiyotning boshlanishi bo'ldi.

Neolit davridan boshlab turli sivilizatsiyalar kulolchilikni nafaqat ehtiyoj, balki madaniy ifoda vositasi sifatida rivojlantira boshlagan. Yaponiyaning Jomon, Xitoyning Yangshao, shuningdek, Mesopotamiya va Misr madaniyatlarida kulollik buyumlarining shakli, bezagi va ishlab chiqarish texnologiyasi orqali jamiyat tafakkuri, estetik qarashlari va texnik bilim darajasi namoyon bo'lgan.

Hindiston va Markaziy Osiyoda tarqalishi- Hindiston vodiysida (mil.avv. 3,000) kulolchilik yuqori darajada rivojlangan, xususan, Mohenjo-Daro shahridan topilgan idishlar nozik bezaklar bilan ta'minlangan.

O'rta Osiyo kulolchilik an'analaridan biri So'g'd va Buxoro maktablari bo'lib, So'g'd kulollari (mil. VI–VIII asrlar) ipak yo'li savdogarlari uchun hashamatli idishlar ishlab chiqargan. Ularda hayvon shakllari va yozuvlar ko'p uchraydi.

Hind vodiysi va O'rta Osiyo hududlarida kulolchilik faqat amaliy san'at emas, balki estetik va ijtimoiy ifoda vositasi sifatida shakllangan. Mohenjo-Darodan topilgan nafis naqshli idishlar bu hududdagi texnik mahorat va badiiy didni ko'rsatsa, So'g'd hamda Buxoro maktablariga xos bezaklar, ayniqsa hayvon tasvirlari va yozuvlar, mintaqaning savdo-madaniy aloqalarini va san'atdagi ramziy tafakkurni yoritib beradi.

Kulolchilik hunari loydan piyola, kosa, tovoq, lagan, ko'za, xurmacha, tog'ora, xum, tandir va shu kabi boshqa buyumlar, o'yinchoqlar, qurilish materiallari tayyorlaydigan soha

bo'lib, u o'zining uzoq tarixiga ega. Maxsus tuproqni olovda qizdirilganda toshsimon bo'lib pishishi, undan har xil buyumlar tayyorlashni odamlar juda qadimdan, ya'ni neolit davrining boshida bilishgan. Tuproq jahonning hamma joylarida bo'lganligi bois u keng tarqalgan bo'lib, dastlab bu hunar bilan ayollar shug'ullangan. Kulolchilik charxi miloddan avvalgi 3-ming yillikning boshida ixtiro qilinganidan keyin kulolchilik bilan erkaklar ham shug'ullanishni boshlagan. Neolit davrida idishlarning ostki qismi uchli qilib tayyorlangan bo'lib, uni yerga sanchib qo'yilgan.

Afrosiyobda olib borilgan arxeologik qazishmalar natijasida IX–XI asrlarda ishlangan saroylarning qoldiqlaridan juda ham ko'plab kulolchilik namunalari topilgan. Farg'ona vodiysida XII asrda bezak sifatida har xil plitkasimon kulolchilik namunalari ishlatilgan. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, bugungi kunda me'morchilikda ishlatilayotgan bezakli kulolchilik plitkalari XII asrda ham keng avj olganligini ko'rsatadi.

Kulolchilik insoniyatning eng qadimiy hunarlaridan biri sifatida nafaqat maishiy ehtiyojni qondirish, balki madaniy taraqqiyotning ko'zgusi sifatida shakllangan. Dastlab ayollar tomonidan bajarilgan bu hunar, charx ixtirosidan so'ng erkaklar faoliyati bilan boyigan, neolit davriga oid uchli taglikli idishlardan tortib, Afrosiyob saroylari devorlaridan topilgan namunalar va XII asrdagi bezakli plitkalgacha bo'lgan yo'l, kulolchilikning shakl va funksional imkoniyatlar jihatidan qanday taraqqiy etganini yaqqol namoyon qiladi.

XIV asrdan boshlab esa O'rta Osiyo hududida kulolchilik jadal sur'atlar bilan rivojlandi. Amir Temur bobomiz san'at va madaniyatga, me'morchilik katta e'tibor qaratdi. Xalq turmush tarzini yaxshilash maqsadida qilgan sa'y-harakatlari tufayli amaliy san'atning barcha turlari ham yana rivojlandi. Boshqa o'lkalardan ustalarni olib kelib, ular uchun maxsus rastalar tashkil qildirdi. Olamga dong'i kegan mashhur, go'zal binolar, qasrlar, saroylar qurdirdiki, ularning har birini alohida o'rganilishi lozim bo'lgan tadqiqot ishi sanaladi.

Ammo, Amir Temur vafotidan keyin esa ichki nizolar oqibatida markazlashgan xonlik kuchsizlanib ketadi. Natijada esa Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklari paydo bo'ladi. O'rta Osiyoda bir necha feodal davlatlarning bunday ajralishi natijasida o'zaro aloqalar susayib ketadi. Shuning uchun ham kulolchilik turli xonliklarda turli rivojlanadi.

Izlanishlar shuni ko'rsatadiki, O'rta Osiyoga islom dinining kirib kelishi va tarqalishi natijasida esa me'morchilikdagi tasvir va haykallar o'rnini badiiy naqsh bezaklari egallagan. Bu esa kulolchilik san'atining keng taraqqiyoti uchun zamin yaratdi. Ayniqsa, IX–XIII asrlar dekorativ san'atda kulolchilikning ajoyib namunalari yaratilganligi ma'lum.

XIX asr o'rtalarida Rishton qishlog'i kulollari elga mashhur bo'ldi. Shu davrda Abdujalil, To'xta, Abdulla kabi ustalar ishlab o'ziga xos Rishton kulollik uslubini yaratishdi. Rishton sopol idishlarining oq zaminiga ko'k bo'yoq bilan bezak chizilgan. Bezak mujassamoti doira shaklida tushirilib, idishning tubi va chetlari ajratilgan. Asosiy bezagi yirik serbarg gullardan iborat bo'lib, orasi noziq pechak singari novdalar bilan to'ldirilgan. To'rsimon

hoshiya naqshlar orasiga an'anaviy ko'zchalar qo'yilgan. Rishton buyumlari qatori Vardonze, G'ijduvon, Kattaqo'rg'on, Shahrisabz, Toshkent kulollarining buyumlari o'ziga xos shakli, bezak mujassamotlari, naqshlari bilan ajralib turgan. XX asr boshlarida O'zbekiston amaliy bezak san'ati qadimgi an'analarga asoslangan holda, yangi zamonaviy mavzular bilan boyitib rivojlantirildi.

O'zbekistonda kulolchilikning rivojlanishida geografik sharoitning o'rni juda kata ahamiyat kasb etgan. Negaki shahrimizning barcha hududida ham kulolchilik buyumlari yasashga mos loy mavjud bo'lmagan. Rishton loyining o'ziga xos tarkibi qizil, oq va ko'k loy aralashmasi mahsulotlarning mustahkamligini ta'minlagan. Natijada Rishton kulolchilik maktabi gullab yashnashiga sabab bo'lgan. Bundan tashqari Rishton kulolchigi an'anaviy kulolchilik maktabi bilan ham ajralib turadi. An'anaviy kulolchilikda loydan tortib ranglargacha barcha kulolchilik homashyolari tabiiy usulda tayyorlanadi va qo'llanadi.

Sopol buyumlarni yuzasini silliqlash uchun ishqor ishlatiladi. Sir aralashmasi ishqor nomli o'simlikni quritib uni belgilangan gradusda kuydirib undan kukun olinib tayyorlanadi.

Ranglarga keladigan bo'lsak tabiiy ranglardan mis oksidi, granit, kobaltdan foydalanishadi. Rossiyadan kimyoviy ranglar kirib kelgandan so'ng tabiiy ranglardan ko'pchilik foydalanmay qo'ygan. Sababi kimyoviy ranglar tabiiy ranglar singari tayyorlanmaydi. Ular ishlatish uchun qulay va oson. Lekin Rishtonning an'anaviy kulolchilik yo'nalishini saqlab qolish maqsadida tabiiy ranglar va ishqor tayyorlash usulini ustozlar shogirdlariga o'rgatib kelishgan.

Rishton kulolchilik maktabining yuksalishida tabiiy-geografik omillar hal qiluvchi rol o'ynagan: bu hududga xos loy aralashmasining sifati va tabiiy hom ashyolardan foydalanish an'anasi, nafaqat buyumlarning mustahkamligi va bezagini ta'minlagan, balki hunarning avloddan-avlodga o'tgan madaniy meros sifatida shakllanishiga xizmat qilgan. Kimyoviy bo'yoqlar kirib kelgan davrda ham, rishtonlik ustalar an'anaviy texnologiyalarga sodiq qolgan holda o'z usullarini saqlab qolishga intilganlar.

Rishtonda kulolchilikni rivozhlanishiga yana muhim bir sabab berda tuproqdan kulolchilik loyi tayyorlanishidir. Bu tuproqdan barcha ishlab chiqarish kulolchilik tayyorlash imkonidir. Loy, boyok, ser va boshkalar. Rishtanning o'zida qizg'ishroq tuproq mavzud bo'lib, buni qilish tilda "hoki surkh" deb atashadi. Rishtonli kulollar mahalliy Leuna shu qadar yahshiligini uni birlamchi qayta ishlashsiz yuklash mumkinligi bilan izoladilar. Chinni kulolchilik mahsulatlari uchun Rishtonliklar Farg'ona vodiylarini har tomondan loylarni Tashibu kelishadi "Chimion Loya" qizil Loya va sariq Ueki o'qimqo'ygan. Bundan tashqari, mahsulot uchun zarur bulgan komponentlarni esa Fargona vodiysining boshka hududlaridan keltirishadi: kvartsni - Sukhdan, ok toshni gurumsaroidan, ok kummi- from Shibrondan, angob uchun zarur .epishko loylarni Isfara, Ohudullaridan. Ilgari Rishtonga quartz potashini

=====

Qo'qonlik savdogarlar sifatini berishar edi. Ishkorli sir (glaze) tayorlash ancha qiyin amaliyot bo'lib, uni qirq bo'yin deb atashadi.

XIXning ohirida Rishton stalarining mahsulotlari Rossiya butun asr ko'rgazmalariga eksport mahsulotlari. 1900 yilda ular Parijdagi Butunzhakhon hunarmandchilik ko'rgazmasida muvaffaqiyati yotli ishtirok etishdi. Rishtonning sopolsi Ovrupadagi eng yaxshi sopol bilan taqqoslangan va ular bilan xavfsizlik hisoblangan.

Bu davrdagi ko'plab stalarining asarlari O'zbekiston va boshqa mamlakatlarning to'plamlariga yordam bo'lib, ular aksariati nomsiz Rishton kulol-mualliflar taqdim etilgan.

XX asrda Rishton hunarmandchiligida ko'plab o'zgarishlar yuz birdi. Undan olingan, import qilingan plant mahsulotlar bilan foydalanishga dosh berolmasdan, kuzagarlar dukonlari yopildi. Qimmatbaho yidishlar ishlab chiqarish keskin kamaidi. 1918 yilda birinchi "Chinnigaron" hunarmandlar ustakhonasi (artel) ishga tushirilib, unda huddi yalpi ishlab chikarishga aylantirilib, 70 nafar usta-kullollar tfaoliyat yuritiladi.

XX asrda Rishton kulolchiligi ko'plab sinovlarni o'tkazdi, unda pasayish davri bo'ldi. Bu davrda O'zbekistonning ko'plab kulolchilik maktablari unutilib ketgan yoki yo'qolib ketdi. Rishton kulochilik maktabari vaqt sinovidan muvofaqqiyatli o'tdi va yig'irmanchi asrning ohiriga kelib O'zbekistonda badiy sopol ishlab chiqarish markazining shon-shuhratini qayta tikladi. Rishton maktabi saqlab qolish siri-ustalar bir necha avlodlar uzluksiz aloqa, otasining ishi ugillari tomonidan davom ettirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tursunoy Sabirhodjayeva Tojiddin qizining " BADIY KULOLCHILIK TARIXI" nomli maqola 16-bet
2. Hodder.I. (2012). Archaeological Theory Today. Polity Press.
3. Marshak. B. (2002). Legends, Tales, and Fables in the Art of Sogdiana. Bibliotheca Persica Press.
4. Abdullayev Alimardon Xaydarovich. Rishton kulolchilik san'atida milliylik va zamonaviylik mavzusidagi magistrlik dissertatsiya ishi 12-13-betlar.
5. O'ZBEKISTON XALQ AMALIY SAN'ATI RIVOJIGA OID ILMIY MANBALAR TAHLILI nomli maqola.
6. To'xtamatova Huvaydo NamDU magistranti Yunusaliyev Muhammadqodir FarDU katta o'qituvchisi
7. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences